

INTELLEKTUAL QOBILIYAT TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK TALQINI

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Tursunova Ozoda

O'qituvchi: **Tojiyeva Xolida**

Annotatsiya

Ushbu maqolada intellektual qobiliyat tushunchasining psixologik va pedagogik talqini ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Intellektual qobiliyatlarning mazmuni, tuzilishi hamda shaxs rivojlanishidagi o'rni psixolog olimlarning qarashlari o'rganilib tahlil qilingan. Shuningdek, intellektual qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, ta'lim jarayonida ularni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Hozirgi kunda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal eta olishi va intellektual qobiliyatlarning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, intellekt, psixologik talqin, pedagogik talqin, bilish jarayonlari, tafakkur, ta'lim-tarbiya, shaxs rivoji, ijodiy fikrlash, mustaqil fikrlash.

Annotation

This article covers the psychological and pedagogical interpretation of the concept of intellectual abilities from a scientific and theoretical perspective. The views of psychologists on the content, structure and role of intellectual abilities in personality development are studied and analyzed. The factors influencing the formation and development of intellectual abilities, pedagogical possibilities of their development in the educational process are also considered. The importance of independent thinking of students, their ability to solve problem situations and intellectual abilities is substantiated today.

Keywords: intellectual ability, intellect, psychological interpretation, pedagogical interpretation, cognitive processes, thinking, education, personal development, creative thinking, independent thinking.

Аннотация

В данной статье рассматривается психолого-педагогическая интерпретация понятия интеллектуальных способностей с научно-теоретической точки зрения. Изучаются и анализируются взгляды психологов на содержание, структуру и роль интеллектуальных способностей в развитии личности. Также рассматриваются факторы, влияющие на формирование и развитие интеллектуальных способностей, педагогические возможности их развития в образовательном процессе. Обосновывается важность самостоятельного мышления учащихся, их способности решать проблемные ситуации и интеллектуальных способностей в современном мире.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, интеллект, психологическая интерпретация, педагогическая интерпретация, познавательные процессы, мышление, образование, личностное развитие, творческое мышление, независимое мышление.

Kirish.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida jamiyat taraqqiyoti inson kapitali, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyati bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tanqidiy yondasha oladigan va o'z bilimini amaliy faoliyatda samarali qo'llay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Shu bois intellektual qobiliyat tushunchasining psixologik-pedagogik jihatdan tahlili dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Psixologiya fanida intellektual qobiliyat shaxsning bilish jarayonlari bilan bog'liq individual psixik xususiyatlar majmui sifatida talqin qilinadi. U insonning idrok etish, eslab qolish, tafakkur yuritish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish

imkoniyatlarini ifodalaydi. Intellektual qobiliyat tugʻma va orttirilgan ham boʻlishi mumkin.

Asosiy qism.

Mashhur psixolog olimlar intellekt tushunchasiga turlicha yondashganlar. Jumladan, J. Piaje intellektni shaxsning tashqi muhitga moslashish qobiliyati sifatida izohlaydi. L. S. Vygotskiy esa intellektual rivojlanishni ijtimoiy muhit va taʼlim jarayoni bilan uzviy bogʻliq holda koʻrib, yaqin rivojlanish zonasi nazariyasini ilgari suradi. G. Gardner tomonidan ishlab chiqilgan koʻp tomonlama intellekt nazariyasiga koʻra esa inson intellekti yagona emas, balki mantiqiy-matematik, lingvistik, musiqiy, fazoviy, shaxslararo va boshqa koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda intellektual qobiliyat quyidagi komponentlardan iborat deb qaraladi:

Bilish jarayonlari (idrok, diqqat, xotira);

Tafakkur operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish);

Nutqiy rivojlanish;

Ijodiy fikrlash;

Muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati.

Ushbu komponentlarning uygʻun rivojlanishi oʻquvchining intellektual salohiyatini belgilaydi.

Pedagogika fanida intellektual qobiliyat oʻquvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashida, bilimlarni oʻzlashtirishda, kreativligida, oʻz- oʻzini nazorat qila olishida namoyon boʻladi. Zamonaviy taʼlimda interfaol metodlardan, zamonaviy texnologiyalardan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish oʻquvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy taʼlim tizimida intellektual qobiliyatni rivojlantirish shaxsning har tomonlama kamol topishida muhim oʻrin tutadi. Boshlangʻich taʼlim bosqichida intellektual qobiliyatni shakllantirish

keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli pedagoglar ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishlari zarur.

Xulosa.

Intellectual qobiliyat tushunchasi psixologik va pedagogik jihatdan ko'p qirrali bo'lib, shaxsning bilish faoliyati va ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Uni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik faoliyat jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vigotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Piaje J. Bolaning intellektual rivojlanishi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
3. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
4. Leontev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Politizdat, 1977.
5. Sternberg R. Inson intellekti nazariyalari. – Nyu-York: Cambridge University Press, 1985.
6. Gardner H. Ko'p qirrali intellekt: nazariya va amaliyot. – Nyu-York: Basic Books, 1993.
7. Zankov L.V. Ta'lim va rivojlanish. – Moskva: Prosveshcheniye, 1975.
8. Davletshin M.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
9. G'oziev E.G'. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.